Advances in Science and Sustainability

Advances in Science and Sustainability, 2026, 8–10

doi: 10.70728/susta.v02.i04.002
Volume 02, Issue 04
ISSN: 3060-5407
Paper

PAPER

SUN’IY INTELLEKTNING TA’LIMGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALARGA TA’SIRINI O‘RGANISH

Boborajabova Sadoqat Farxod qizi[1],* and Ashurova Nasiba Batirovna[1]

[1]NDKTU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti
[2] ilmiy rahbar, NDKTU iqtisod-moliya ishlari bo‘yicha prorektor,i.f.f.d.,professor

* boborajabova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada bugungi kunning rivojlanib borayotgan Sun’iy Intellekt sohasi va unga ta’limga kiritilayotgan investitsiyalarni uyg’unlashtirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar kelajakda mamlakatdagi inson kapitalidan unumli foydalanish va ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Key words: sun’iy intellekt, investitsiya, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, ta’lim tizimi, innovatsiya, samaradorlik.

XXI asr – raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asri hisoblanadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari sanoat, tibbiyot, moliya, qishloq xo‘jaligi, transport va ta’lim kabi ko‘plab sohalarga kirib bormoqda. Dunyo mamlakatlari sun’iy intellektni iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida e’tirof etib, mazkur sohani rivojlantirishga katta miqdorda investitsiyalar yo‘naltirmoqda. Investitsiyalarning aynan ta’lim sohasiga kiritilayotganligi inson kapitalining rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlardan biri hisoblanadi. O‘z navbatida, Sun’iy intellektni rivojlantirishda asosiy omillardan biri — malakali kadrlar tayyorlash tizimidir. Shu bois ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida transformatsiya qilish zarurati paydo bo‘lmoqda. Yuqoridagi fikrlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunish uchun aytish mukinki, SI sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar faqat texnik infratuzilma bilan cheklanib qolmasdan, inson kapitalini rivojlantirishga ham qaratilishi lozim.

Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni jadallashmoqda. Bu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va unga mos mutaxassislar tayyorlash strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi – sun’iy intellekt sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarni ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirishning nazariy va amaliy

Compiled on: March 2, 2026.
Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Sustainability for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Olib borilgan tadqiqot jarayonida ta'limga kiritilayotgan investitsiyalar va ularda sun'iy intellektning samarali ta'sirini o'rganish uchun tahliliy va solishtirma tahlil usuli, statistik ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish, xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish singari bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Shuningdek, sun'iy intellekt sohasiga investitsiyalar hajmi, ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari hamda inson kapitalini rivojlantirish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt sohasiga investitsiyalarni ta'lim tizimi bilan integratsiyalash quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi: Birinchidan, inson kapitalining sifat jihatdan oshishiga olib keladi. Har bir korxona yoki tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasi nafaqat miqdor jihatidan ko'payibgina qolmay, balki sifat jihatidan ham yuqori bosqichga ko'tariladiki, bunda inson kapitalining sihat salomatlik va ta'lim kapitallariga ega bo'lishi jarayonlari bir-biriga uzviy bog'liq holda ko'tarilishini kuzatishimiz mumkin.

Xususan, Sun'iy intellekt asoslari maktab va oliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida ta'limda analitik fikrlash qobiliyati rivojlanadi, raqamli savodxonlik darajasi oshadi, shuningdek, har bir insonda innovatsion tafakkur tizimli ravishda shakllanadi. Natijada mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar soni ortadi. Ikkinchidan, Ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga bevosita shu sohada faoliyat yuritayotgan xodimlarning ta'lim darajasi oshishi sabab bo'ladiki, bunda SI texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish avtomatlashtirish jarayonlarini kuchaytiradi, inson omili ishtirokidagi xatoliklarni kamaytiradi va albatta, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Ta'lim orqali tayyorlangan mutaxassislar esa ushbu texnologiyalarni samarali boshqarish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'z o'rnida inobatga olinishi kerak bo'ladigan jarayonlardan biri shundaki, Sun'iy intellekt va ta'lim integratsiyasi murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda yangiliklarning oson tadbiq etilishi bilan birgalikda bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bularga misol qilib keltiradigan bo'lsak, o'qituvchilarning yetarli malakaga ega emasligi hududlar miqyosida keng ko'zga tashlanadigan jihatdir.

Keyingi o'rinda har bir korxona faoliyatidagi eng keng tarqalgan salbiy tomonlardan biri texnik infratuzilmaning yetishmasligi muammosini hal etish turadi. Xuddi shunday masalalardan yana biri hududlar o'rtasidagi raqamli tafovut hisoblanib buni statistik jihatdan tahlil qilsak, qishloq hududlariga yetib bormayotgan internet tarmog'i hammaga ma'lum. Investitsiyalarni samarali boshqarish masalalari sifatida yana bir muammoni kuzatish mumkinki, bu loyihalarni xalqaro standartlarga moslashtirish va xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish kerakligini anglatuvchi muammo hisoblanadi.

Sun'iy intellekt sohasiga investitsiyalarni faqat qisqa muddatli iqtisodiy foyda nuqtai nazaridan emas, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish omili sifatida baholash zarur. Chunki inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish va unga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish mamlakatning innovatsion rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Bu jarayon inson kapitalining sifatini oshiradi, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytiradi va global raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Kelgusida sun'iy intellektni ta'lim tizimiga chuqur integratsiya qilish orqali yuqori texnologik iqtisodiyotga o'tish imkoniyati kengayadi. Shu bois mazkur yo'nalishda tizimli, uzluksiz va maqsadli investitsiya siyosatini olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. (2021). "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi qaror.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. (2022). Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami.

3. To'xtaboyev A.T. Ma'muriy menejment. O'quv qo'llanma.T.: "Moliya".2003

4. Salixov S.A. va boshqalar. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik T.: “Iqtisodiyot” 2013

5. The Age of Surveillance Capitalism / Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism. PublicAffairs.

6. Stanford University. (2024). AI Index Report 2024. Stanford Institute for Human-Centered AI.

7. https://depozit.uz/stocks

8. https://uznetix.com

9. https://tkti.uz/posts/navbar/talimga-investitsiya-kiritish